

## LISONIY SATHLAR MASALASIGA DOIR

*Sobirova Muzayyana Ilhomjon qizi*  
QDPI 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti  
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti  
[Sobirovamuzayyana68@gmail.com](mailto:Sobirovamuzayyana68@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola lisoniy sathlar hamda ularning voqelanishi haqida.

**Kalit so‘zlar:** fonetik, leksik (semantik), morfologik, sintaktik, uslubiy, lisoniy va pragmatik jihat

Til murakkab butunlik bo‘lib, u o‘zida fonetik, leksik (semantik), morfologik, sintaktik, uslubiy sathlarni birlashtiradi.

Lisoniy substansiya hech qachon to‘la-to‘kis voqelanmaydi, voqelangan har bir nutq parchasida uning zarralari qorishgan holatda bo‘ladi. Borliqqa obyektiv yondashuvchi tadqiqodchi fahmiy tavsifiy usul bilan o‘z obyektini tekshirar ekan, shu qorishiq holatni tadqiqotida aks ettirishga majbur bo‘ladi<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda sistemaviy qurilishga ega bo‘lgan lisoniy sathlarning fikrni shakllantirish va ifodalash jarayonida o‘zaro hamkorligini sistemaviy usullarda o‘rganishga ixtisoslashgan tilshunoslikning yangi bir yo‘nalishi shakllantirishga ijtimoiy ehtiyoj mavjud.

Lisoniy substansiyaning voqelanishi ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- a) tilning voqelanish jarayoni
- b) lisoniy sistemaning voqelangan holati

Bu yerda masalaning ikkinchi jihati izoh berishga ehtiyoj tug‘dirmaydi, birinchi jihat tilning voqelanish jarayoni bo‘lib, nutq hosil qilishda lisoniy sathlarni o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi. Nutqni yaratish jarayoni psixolingvistlar tadqiq manbai bo‘lib inson faoliyatining bir turi sifatida o‘rganilgan. Biroq tilning voqelanish jarayonida sof lisoniy omillar ham mavjud. Ular lisoniy birliklarning paradigmatic va sintagmatik aloqalari sifatida, nutq ehtiyojlariga ko‘ra paradigmanning qaysi a‘zosini tanlash va shu ehtiyoj asosida tanlangan paradigma a‘zosining nutqda qanday sintagmatik munosabatlarni voqelantirish xususiyatlari bilan bog‘liqdir, ya‘ni lisoniy sistemaning voqelanish jarayoni muayyan nutq sharoitida so‘zlovchining maqsadi, nutq sharoiti, lisoniy birliklardan mosini tanlash va uni muvofiq qurshovda qo‘llash me‘yori va qonun qoidalari nazarda tutiladi<sup>2</sup>. Nutqiy voqelanish pragmatik bilan bog‘liq bo‘lib - «Pragmatika» (yunoncha pragma - ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, u Suqrotdan oldingi davrlarda ham qo‘llangan. Bu oqimning asosiy

<sup>1</sup> Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида. Т. “Ниҳол” 2011. 5-бет.

<sup>2</sup> Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида. Т. “Ниҳол” 2011. 6-9-бет.

turaqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30 yillarida pragmatizm g'oyalariniig keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

"Pragmatika" atamasi dastlab tilshunoslik faniga XX asrning 30-yillarida mashhur nazariyotchi Ch.U.Morris tomonidan kiritilgan. U pragmatikani semiotikaning tarkibiy qismlaridan biri deb ta'kidlaydi. Ko'pgina olimlar fikricha, "semantika" belgilar (til birliklari)ning ularda ifoda etgan narsalarga munosabatini, "sintaktika" belgi (til birligi)ning belgi (til birligi)ga munosabatini nazarda tutadi. Pragmatika esa inson qanday sharoitda va nima maqsadda gapirayotganini ochib berishga intiladi, ifodaning pragmatik samarasi qanday ekanligini tushuntirishga xoslanadi.

Nutqni ijtimoiy lisoniy va pragmatik jihatdan tadqiq etishda semantik proppozitsiya va pressuppozitsiya kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Pressuppozitsiya gapda ishtirok etayotgan bo'laklar orqali ifodalanayotgan ma'no emas, balki zohiriy ma'no ostidagi qo'shimcha - botiniy ma'no. U ekstralingvistik vositalar bilan anglashiladi. Chunki so'zlovchi biron fikrni aytish bilan o'sha fikr orqali qo'shimcha niyatini ham ifoda etadi. Masalan, *o'qidi*, (o'tgan zamondaligi bilan birga uning aniq bajariladi).

Shunday qilib, pragmatikani quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi matn sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Shunday qilib nutqning tug'ilishida lisoniy va nolisoniy omillar birdek ishtirok etadi.

Morfologik shakl UGM(Umumiy grammatik ma'no) sining OGM (Oraliq grammatik ma'no)lar orqali XGM (xususiy grammatik ma'no)lar ko'rinishida voqelanishi leksik sathning ta'siri va morfologik shaklning qanday sintaktik qolipda voqelanayotganligi, OGM lar farqlanishi XGM lar voqelanishida leksik va sintaktik hodisalar mavqeyi masalasi, shu bilan birgalikda sintaktik qolip umumiy ma'nosining oraliq holatlar asosida nutqiy voqelanishda lug'aviy va morfologik sathlarning o'zni alohida ahamiyatga ega. Leksik paradigmadan so'zni, morfologik paradigmadan morfologik shaklni, sintaktik paradigmadan sintaktik qolipni tanlash jarayonida so'zlovchi nutq ehtiyojlari bilan birgalikda leksik, morfologik sintaktik vositalarning

o‘zaro birikish qonuniyatlarini va turli birikishlarning qanday natijalar berishi kerakligini hisobga olgan holda ularni birlashtiradi<sup>3</sup>.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, lisoniy substansiya murakkab butunlik bo‘lib, u o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan lisoniy sathlardan tashkil topadi. Bunda biror sath o‘zi yakka holatda voqe bo‘la olmaganidek, voqe bo‘lgan butunlikdan chetda ham tura olmaydi. Muomalaga aylangan har bir nutq parchasida lisoniy sath birliklari aralashgan holda voqelanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyot:**

1. Mengliyev B. Til yaxlit sistema sifatida. T. “Nihol” 2011

---

<sup>3</sup> Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида. Т. “Нихол” 2011. 9-бет.